

## FRANSUZ TILI FANIDAN O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI BAHOLOVCHI YOPIQ TEST TOPSHIRIQLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**L.N. Tangriyeva**

*Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi*

*Bilim va malakalarni baholash agentligi, 10084, Toshkent sh., Bog'ishamol k., 12*

**Qisqacha mazmuni.** Ushbu maqolada oliy ta'lif muassasalari bakalavriat bosqichi kirish test sinovlarida fransuz tili fanidan abituriyentlarning o'qib tushunish ko'nikmasini baholovchi yopiq test topshiriqlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** o'qib tushunish ko'nikmasi, yopiq test topshiriqlari, test tafsiloti, test variant.

Oliy ta'lif muassasalari bakalavriat bosqichi kirish test sinovlarida foydalaniladigan chet tili (fransuz, ingliz, nemis) fanidan test varianti boshqa umumta'lif fanlari singari (majburiy fanlar bundan mustasno) 30 ta yopiq test topshirig'idan tashkil topadi. Test topshiriqlarining soni hamda baholash mezonlari O'zbekiston Respublikasi ta'lif tashkilotlariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi. Mazkur variant oliy ta'lif muassasalari bakalavriat bosqichi kirish test sinovlarida chet tili fani (fransuz tili) bo'yicha test tafsilotiga asosan shakllantiriladi.

Test tafsiloti – testning maqsadi, qo'llanishi, strukturasi, shuningdek, test topshiriqlariga, test o'tkazish jarayoniga va test natijalarini hisoblashga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga olgan hujjat [1]. Mazkur hujjatga asosan fransuz tili fanidan shakllantiriladigan test varianti abituriyentlarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish

darajasi bilan birga mantiqiy fikrashi va ta'lifning keyingi bosqichiga tayyorgarligini baholaydigan, fanga oid kompetensiyalarni tekshirishga yo'naltirilgan test topshiriqlaridan tarkib topadi.

Yuqorida tilga olingan hujjatning fan mazmuni tarkibi qismiga asosan fransuz tili fani test varianti abituriyentning tilga doir bilimlardan grammatika va leksika (so'z boyligi), til ko'nikmalaridan esa o'qib tushunish ko'nikmasini baholashga qaratilgan test topshiriqlaridan iborat.

Fransuz tili fanidan abituriyentning o'qib tushunish ko'nikmasini baholashda yopiq test topshiriqlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda aniqlik kiritish lozim: yopiq turdag'i test topshiriqlari (ikkitadan o'ntagacha javob variantlari bilan) da abituriyent berilgan javob variantlari orasidan to'g'ri javobni tanlaydi. Yopiq test topshiriqlari asosan savol qismi va bitta (ikki yoki uchta) to'g'ri javobga ega bo'lgan javob

variantlaridan tashkil topadi. To'g'ri javobga o'xshash, lekin aslida noto'g'ri bo'lgan javob variantlari distraktorlar deb nomlanadi. Distraktorlar soni muammoning xususiyatidan kelib chiqib, ikki-uchtadan olti-yettitagacha ham bo'lishi mumkin [2].

O'qib tushunishni baholashga qaratilgan test topshiriqlarining maqsadi o'qilgan matnning umumiy ma'nosini ilg'ash, undagi ma'lumot va tafsilotlarni tushunish, ochiq aytilmagan fikrlarni anglash singari ko'nikmalarni tekshirishdan iborat.

**Misol:**

**Lisez le texte et choisissez les bonnes réponses.**

Chère Nicole,

J'ai été très heureuse de recevoir tes nouvelles. Il y a pas mal de changements depuis ton retour à Toronto. J'ai quitté le lycée Gay Lussac il y a juste un an car j'ai pris ma retraite. Je me suis installée en Charente Maritime où j'ai acheté une maison entre Rochefort et l'île d'Oléron à 40 km de La Rochelle. Je ne m'ennuie pas car je fais de la peinture (huile, aquarelle, pastel) et j'ai commencé à prendre des cours de sculpture sur pierre.

J'ai gardé un excellent souvenir de ta venue à Limoges et serai très contente de te revoir. Si tu viens en France, je t'accueillerai avec grand plaisir.

Bien amicalement,

Gisèle

**1. Qui est le destinataire de la lettre ?**

- A) Nicole
- B) Gisèle
- C) Gay Lussac
- D) Limoges

**2. Où habite Nicole ?**

- A) À Toronto
- B) Dans l'île d'Oléron
- C) En Charente Maritime
- D) À Limoges

**3. Que fait Gisèle pour ne pas s'ennuyer à la maison ?**

- A) Elle fait de la peinture.
- B) Elle s'intéresse à la peinture murale.
- C) Elle fait collection de timbres.
- D) Elle fait des sculptures sur bois.

O'qib tushunish ko'nikmasini baholashga qaratilgan test topshiriqlarida beriladigan matn test topshiruvchilarining darajasiga mos bo'lishi kerak. Misol uchun yuqoridagi test topshirig'i B1 darajadagi sinaluvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, ularni B2 darajadagi sinaluvchilar bilimini baholash uchun ishlatish mumkin emas [3].

**Misol:**

Lisez le texte et choisissez les bonnes variantes pour les Q1, Q2, Q3 qui correspondent d'après le sens.

Il était une fois un pauvre meunier qui avait trois fils. Les deux aînés étaient très paresseux, (Q1) ... . À sa mort le meunier n'a laissé à ses enfants que son moulin, son âne et son chat.

Le plus aîné a reçu le moulin, (Q2) ... et le troisième n'a hérité que d'un chat. Les aînés se sont dépêchés de vendre le moulin et l'âne.

Comme ils ne travaillaient pas, ils avaient vite dépensé tout leur argent. Le plus cadet se désolait. « Que ferais-je avec ce chat ? Je pourrais me confectionner des gants avec sa fourrure mais cela ne m'empêchera pas de mourir de faim ».

Le chat qui avait d'autres projets (Q3) ... : « Vous avez tort de vous plaindre, mon bon maître ! »

### **1. Choisissez la variante correcte pour Q1.**

- A) mais le plus cadet travaillait dur
- B) qui fonctionnait très bien
- C) parce qu'il aimait beaucoup son père
- D) mais la mère l'a aidée avec plaisir

### **2. Choisissez la variante correcte pour Q2.**

- A) ils ont demandé
- B) le temps qu'il fait
- C) qu'il est malade
- D) le second a pris l'âne

### **3. Choisissez la variante correcte pour Q3.**

- A) a pris la parole
- B) a quitté la maison
- C) est devenu célèbre
- D) marchait très vite

Yuqoridagi singari test topshiriqlarini shakllantirishda sinaluvchilarining tushunib olishlarini ta'minlash uchun to'ldirilishi kerak bo'lgan gapni matnning boshidan emas, aksincha, keyingi gaplardan tanlash tavsiya etiladi [3].

Bundan tashqari chet tili fanidan abituriyentlarning o'qib tushunish ko'nikmasini baholashga qaratilgan

test topshiriqlarini shakllantirishda quyidagi tavsiyalarga rioya etish talab etiladi [4] :

- matndagi ma'lumotlar test topshiriqlarida ketma-ketlik asosida joylashishi shart, ya'ni birinchi topshiriq matnning boshida keltirilgan ma'lumot asosida, ikkinchi topshiriq undan keyingi ma'lumot asosida va h.k. ;

- matndagi ayni bir ma'lumotni tushunganlikni tekshirish faqat bitta test topshirig'i orqali aniqlanishi zarur ;

- matn asosida shakllantirilgan test topshiriqlarining darajasi matnning o'ziga nisbatan murakkab bo'lmasligi kerak ;

- test topshiriqlari shunday tuzilishi kerakki, sinaluvchilar matnni o'qimasdan turib, unga javob bera olmasligi kerak ;

- test topshiriqlarini bajarish uchun sinaluvchilardan maxsus bilim (masalan, geografiyaga oid bilimlar) talab qilinmasligi lozim ;

- matndagi ma'lumotlar test topshiriqlarida so'zma-so'z berilmasligi, aksincha boshqa so'zlar bilan ifodalanishi kerak. Bu esa sinaluvchilarning matnni tushunmasdan turib, shunchaki o'xhash so'zlar orqali to'g'ri javobni topishlariga to'sqinlik qiladi.

Maqolada so'z yuritilgan masalalar yuzasidan xulosa qiladigan bo'lsak, chet tilida, xususan, fransuz tilida ham o'qib tushunish ko'nikmasini baholovchi yopiq test topshiriqlari barcha abituriyentlar

uchun umumiy mezon bo'yicha o'qib tushunish ko'nikmasini obyektiv baholash imkonini beradi. Bunday test topshiriqlarini shakillantirishda chet tilida o'qib tushunish muammolari bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlar

tomonidan ishlab chiqilgan umumiy qoida va tavsiyalar bilan bir qatorda, bir qancha o'ziga xos talablarni ham hisobga olish talab etiladi.

## ADABIYOTLAR

1. Челышкова М.Б., Теория и практика конструирования педагогических тестов. Москва, 2002., стр,96.
2. Семеновская С.А., Основы тестологии. Учебное пособие. Саратов, 2015., стр. 16.
3. Brown J.D. Testing in Language Programs: A Comprehensive Guide to English Language Assessment, Upper Saddle River. – N.J.: Prentice Hall Regents, 2005. – p.44.
4. Green A. Exploring Language Assessment and Testing: Language in Action. – NY: Routledge, 2014., p. 113.

## CHARACTERISTICS OF MULTIPLE-CHOICE TEST ITEMS IN ASSESSING READING SKILLS

(in the examples of test items in French language)

**L.N. Tangriyeva**

*Agency for Assessment of Knowledge and Competences under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan,  
Tashkent 100084, Bogishamol st. 12.*

**Abstract.** This article reveals the characteristics multiple choice items in assessing readings skills in French language in entrance exams to higher education institutions.

**Keywords:** reading comprehension skills, closed test items, specification of test items, set of test items.